



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
BUYRUQ**

20 23yil " 23" iyun 109-son

Toshkent shahri

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida
korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini
mustahkamlash chora-tadbirlar to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish, tizimda aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini raqamlashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov) **bir hafta muddatda** Vazirlik markaziy apparati (departament, inspeksiya, boshqarma, bo'limlar) hamda hududiy bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini yakunlash choralarini ko'rsin.

2. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinnbosari (E.Muxitdinov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov):

ikki oy muddatda ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydanish bo'yicha xalqaro talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti bo'yicha sertifikat olish choralarini ko'rsin;

sertifikatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan tashkilot tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimdagi rahbar-xodimlarga trening o'tkazilishini tashkil etsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov) **bir hafta muddatda** Vazirlik markaziy apparati (departament, inspeksiya, boshqarma, bo'limlar) hamda hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar, tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari, hokim yordamchilari, barcha xodimlaridan "manfaatlar to'qnashuvi deklaratasiysi"ni to'ldirish ta'minlansin.

4. Joriy yilning 10-iyul kuniga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D. Temirov) korrupsiyaga qarshi kurashishning reyting baholash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni E.Antikor.uz platformasiga joylashtirsin.

5. Xodimlarning malakasini oshirish markazi (A.Raxmonov) **2023-yil yakuniga qadar** Hisob palatasi, Huquqni muhofaza qilish

akademiyasi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda tizimda faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 18 soatlik o'quv kurslarida o'qitilishi ta'minlansin.

6. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rribbosari (E.Muxitdinov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov) tizimda korrupsiya holatlari aniqlanganda **ikki kun muddatda** vazirlikning barcha xodimlari, jumladan hokim yordamchilari va mahalla raislari ishtirokida videokonferensaloqa orqali yig'ilish o'tkazish amaliyoti joriy etilsin hamda yig'ilishda jinoyatni kelib chiqish sabablari va uning oldini olish choralar muhokama qilinsin.

7. Mehnat sohasida loyihalarni boshqarish markazi MCHJ (S.Tojiboyev): **uch oy muddatda** tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari jumladan, hokim yordamchilari tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish (subsidiya berish, jamoat ishlariga jalb etish, ishsizlik nafaqasini ajratish)da "Face ID" texnologiyalari joriy etilsin,

vazirlikning raqamli ekotizimida "Antikorrupsiya" platformasini yaratish, platformani boshqa axborot tizimlariga integratsiya qilinsin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (N.Kadirov) vazirlikning ichki mehnat qoidalariga mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzilishlar ro'yxatiga xodimlar tomonidan korruption holatlarga yo'l qo'yishni kiritish, shu asosda bunday xodimlar bilan ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilish va qayta ishga qabul qilmaslik amaliyoti joriy etilsin.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov), Ichki audit bo'limi (A.Toshmatov) tomonidan o'tkaziladigan nazorat tadbirlari keskin oshirilsin.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (N.Kadirov), Moliya iqtisod boshqarmasi xodimlar o'rtasida korruption omillarni aniqlash uchun "anonim so'rov"lar o'tkazish;

xodimlar tomonidan korruption holatlar to'g'risida ma'lumot berganda ularga moddiy rag'batlantirish (shaxsini yashirgan holda) to'lovlarini amalga oshirish.

11. Vazirlik axborot xizmati (F.Xaitov) vazirlik rahbariyati, hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari hamda ularning o'rribbosarlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda ommaviy axborot vositalarida muntazam brifinglar o'tkazilsin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B.Musaev

